



STRENGTHENING OF QATAR'S GLOBAL DIPLOMATIC POSITION IN THE CONTEXT OF THE AFGHAN CRISIS

Kamron Qahramonovich Davranov

Independent Researcher

University of World Economy and Diplomacy

Tashkent, O'zbekiston

ABOUT ARTICLE

Key words: Afghan crisis, Qatari foreign policy, small-state diplomacy, mediation, humanitarian diplomacy, Doha negotiations, Taliban movement, US-Taliban agreement, multi-vector politics, global diplomatic position, regional security, peace process, international mediation, pragmatic diplomacy.

Received: 19.02.26

Accepted: 20.02.26

Published: 21.02.26

Abstract: This article analyzes the strategy of the State of Qatar to strengthen its global diplomatic position against the backdrop of the protracted crisis in Afghanistan. Drawing on the theories of small-state diplomacy, mediation, and humanitarian diplomacy, the article focuses on how Qatar's engagement with the Afghan issue is strengthening its role in the international system. The opening of the Taliban political office in Doha in 2013, the US-Taliban agreement in 2020, and Qatar's central role in evacuation and humanitarian operations after 2021 have established the country as a credible negotiating platform. The article analyzes the pragmatic and multi-vector nature of Qatar's foreign policy, its coordinated cooperation with the US, the European Union, the UN, and regional actors.

AFG'ON INQIROZI KONTEKSTIDA QATARNING GLOBAL DIPLOMATIK MAVQEINING MUSTAHKAMLANISHI

Kamron Qahramonovich Davranov

Mustaqil tadqiqotchisi

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Afg'on inqirozi, Qatar tashqi siyosati, kichik davlatlar diplomatiyasi, vositachilik (mediatsiya), gumanitar diplomatiya, Doha muzokaralari, Tolibon harakati, AQSh-Tolibon kelishuvi, ko'p

Annotatsiya: Mazkur maqolada Afg'onistondagi uzoq davom etayotgan inqiroz fonida Qatar Davlatining global diplomatik mavqeini mustahkamlash strategiyasi tahlil qilinadi. Maqolada kichik davlatlar

vektorli siyosat, global diplomatik mavqe, mintaqaviy xavfsizlik, tinchlik jarayoni, xalqaro vositachilik, pragmatik diplomatiya.

diplomatiyasi, vositachilik (mediatsiya) va gumanitar diplomatiya nazariyalariga tayanib, Qatarning Afg'on masalasidagi faolligi uning xalqaro tizimdagi rolini qanday kuchaytirayotganiga e'tibor qaratiladi. 2013-yilda Dohada Tolibon siyosiy ofisining ochilishi, 2020-yilda AQSh-Tolibon kelishuvi hamda 2021-yildan keyingi evakuatsiya va gumanitar operatsiyalarda Qatarning markaziy ishtiroki mamlakatni ishonchli muzokara maydoni sifatida namoyon etdi. Maqolada Qatar tashqi siyosatining pragmatik va ko'p vektorli xususiyati, uning AQSh, Yevropa Ittifoqi, BMT hamda mintaqaviy aktorlar bilan muvofiqlashtirilgan hamkorligi tahlil qilinadi.

УКРЕПЛЕНИЕ ГЛОБАЛЬНОЙ ДИПЛОМАТИЧЕСКОЙ ПОЗИЦИИ КАТАРА В КОНТЕКСТЕ АФГАНСКОГО КРИЗИСА

Камрон Қахрамонович Давранов

Независимый исследователь

Университет мировой экономики и дипломатии

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: афганский кризис, внешняя политика Катара, дипломатия малых государств, посредничество, гуманитарная дипломатия, переговоры в Дохе, движение «Талибан», соглашение между США и «Талибаном», многовекторная политика, глобальная дипломатическая позиция, региональная безопасность, мирный процесс, международное посредничество, прагматическая дипломатия.

Аннотация: В данной статье анализируется стратегия Государства Катар по укреплению своих глобальных дипломатических позиций на фоне затянувшегося кризиса в Афганистане. Опираясь на теории дипломатии малых государств, посредничества и гуманитарной дипломатии, статья фокусируется на том, как участие Катара в афганской проблеме укрепляет его роль в международной системе. Открытие политического офиса талибов в Дохе в 2013 году, соглашение между США и талибами в 2020 году и центральная роль Катара в эвакуационных и гуманитарных операциях после 2021 года утвердили страну в качестве надежной переговорной площадки. В статье анализируется прагматичный и многовекторный характер внешней политики Катара, его скоординированное сотрудничество с США, Европейским союзом, ООН и региональными игроками.

Kirish. Kichik davlatlar diplomatiyasi zamonaviy xalqaro munosabatlarda alohida ahamiyat kasb etadi. Hududlarining cheklanganligi demografik omil hamda harbiy salohiyatga

qaramay global siyosiy jarayonlarga ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga egadirlar. XXI asr sharoitida globallashuv "yumshoq kuch" kontsepsiyasining keng qo'llanilishi kichik davlatlarga an'anaviy kuch omillariga tayangan holda emas, balki diplomatik tashabbuslar, vositachilik, muloqot platformalari va xalqaro hamkorlik mexanizmlari orqali o'z nufuzini oshirish imkonini berdi. Ana shunday davlatlar qatorida Qatar alohida o'rin egallaydi. U o'z tashqi siyosatini mustaqil, muvozanatli va ko'p vektorli asosda olib borib, mediatsiyani davlat siyosatining muhim ustuvor yo'nalishiga aylantirgan.

Qatarning diplomatik strategiyasi asosan tinchlikni mustahkamlash, nizolarni muzokaralar orqali hal etish hamda barcha tomonlar bilan muloqotga ochiq bo'lish tamoyillariga tayangan. Mamlakat Konstitutsiyasida ham tinchlikparvarlik va xalqaro nizolarni hal etishda vositachilik qilish tashqi siyosatning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Shu bois Qatar o'zini mintaqaviy va global miqyosda neytral, ishonchli va pragmatik vositachi sifatida namoyon etib kelmoqda. Uning mediatsiya modeli kuch ishlatishga asoslanmagan, balki ishonch muhitini shakllantirish, tomonlarni bir stol atrofida jamlash va muzokaralar uchun qulay sharoit yaratishga qaratilgan.

Muhokama va natijalar. So'nggi o'n yilliklarda Qatar tashqi siyosatining muhim xususiyatlaridan biri xalqaro va mintaqaviy nizolarni diplomatik muloqotlar orqali tartibga solishga intilishdir. Doha Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika mintaqasidagi Livan, Sudan, Yaman hamda Falastin bilan bog'liq jarayonlarda faol diplomatik tashabbuslar bilan ishtirok etib kelmoqda [1]. Ushbu umumiy strategiya doirasida Afg'oniston masalasi Qatarning tashqi siyosiy kun tartibida alohida o'rin egallaydi.

Qatarning Afg'oniston bo'yicha roli, ayniqsa, 2010-yillardan boshlab sezilarli darajada kuchaydi. 2013-yilda Tolibon harakatining siyosiy ofisi Dohada ochilishi, 2020-yil fevral oyida AQSh va Tolibon o'rtasida tinchlik bitimining imzolanishi hamda 2020-yil sentyabr oyida Afg'oniston hukumati va Tolibon vakillari o'rtasidagi muzokaralarga mezbonlik qilinishi Doha diplomatiyasining eng muhim yutuqlari sifatida e'tirof etiladi. 2021-yilda A.G'ani hukumati qulaganidan so'ng esa Qatar minglab afg'on fuqarolari va xorijliklarni evakuatsiya qilishda hamda G'arb davlatlari bilan yangi afg'on hokimiyati o'rtasida muloqotni ta'minlashda muhim vositachi sifatida namoyon bo'ldi. Qatarning Afg'oniston bilan bog'liq siyosati doimo bugungi darajadagi faollik bilan kechmagan. Uning evolyutsiyasini xronologik jihatdan bir necha bosqichga ajratish mumkin.

Birinchi bosqich 1971-yilda Qatar mustaqillikka erishganidan 1996-yilgacha bo'lgan davrni qamrab oladi. Mazkur davrda Doha Afg'onistondagi jarayonlarda mustaqil va faol o'yinchi sifatida deyarli ko'zga tashlanmadi. Bunga bir tomondan, amirlikning tashqi siyosiy

imkoniyatlarining cheklanganligi, ikkinchi tomondan esa mintaqaviy masalalarda Saudiya Arabistoni va boshqa yirik arab davlatlarining yetakchi rol o'ynagani sabab bo'ldi.

1979-yilda sobiq Sovet Ittifoqining Afg'onistonga qo'shin kiritishi musulmon dunyosida keskin norozilik uyg'otdi va keng miqyosli qurolli qarshilik harakatining shakllanishiga olib keldi. Ushbu davrda Fors ko'rfazi mintaqasidagi yirik davlatlar afg'on mujohidlarini siyosiy, moliyaviy va harbiy jihatdan qo'llab-quvvatlashda faol bo'ldilar. Turli manbalarda qayd etilishicha, Saudiya Arabistoni 1980-yillar davomida afg'on muxolifatiga milliardlab dollar miqdorida yordam ko'rsatgan. Shuningdek, Qatar ham bu davrda yiliga 400 million dollardan mablag' ajratgan [2]. Afg'on urushida 43 ta islom davlatidan 35 mingga yaqin musulmon ishtirok etgan. Ular orasida Saudiya Arabistoni, Jazoir, Misr, Marokash, Sudan va boshqa bir qator mamlakatlardan taxminan 25 ming arab bor edi [3].

Bu davrda amirlik jiddiy muammolarga duch keldi. Natijada Afg'oniston masalasida mustaqil va sezilarli rol o'ynay olmadi. Buning asosiy sabablaridan biri amirlikning 1980-yillarda murakkab iqtisodiy inqirozga duch kelganidir. Jahon bozorida neft narxining keskin pasayishi Qatar iqtisodiyotiga jiddiy zarba berdi. Xususan, 1986-yilga kelib bir barrel neft narxi 10 AQSh dollaridan ham past darajaga tushdi. Natijada davlat byudjeti 1985-yildayoq taqchillikka yuz tutdi.

Ushbu iqtisodiy qiyinchiliklar fonida amir Shayx Xalifa bin Hamad Al Soniy 1980-yillarning o'rtalarida qat'iy tejamkorlik siyosatini joriy etishga majbur bo'ldi [4]. Bu choralar mamlakat ichida ijtimoiy taranglikning kuchayishiga olib keldi. Ayrim hududlarda ish tashlashlar va norozilik namoyishlari kuzatilib, ularda nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy talablar ham ilgari surildi.

Shu sababli Qatar rahbariyati o'z resurslarini asosan ichki barqarorlikni saqlash va ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni yumshatishga yo'naltirdi. Bunday sharoitda Afg'onistondagi uzoq va xarajatli mojaroga faol aralashish amirlik uchun maqsadga muvofiq emas edi. Nisbatan yosh va institutsional jihatdan endigina shakllanayotgan davlat sifatida Qatar, eng avvalo, ichki barqarorlikni ta'minlashni ustuvor vazifa deb bildi.

Ikkinchi bosqich (1996–2010) Qatarining Afg'oniston masalasida xalqaro maydonda o'ziga xos o'rinni shakllantirishga intilishi bilan tavsiflanadi. Ushbu davrda Doha Tolibon harakati bilan nisbatan yaqin aloqalarni saqlab qolgan bo'lsa-da, Tolibonning Afg'onistonda birinchi bor hokimiyatga kelgan davrida

(1996–2001) ularning hukumatini rasman tan olmadi. Shu bilan birga, Qatar Yaqin Sharq mintaqasida AQShning muhim strategik hamkorlaridan biri hisoblanganiga qaramay, 2001-yil

11-sentabr voqealaridan so'ng Afg'onistonda AQSh boshchiligida boshlangan harbiy operatsiyalarda bevosita ishtirok etmadi.

2010-yilga kelib Qatar Afg'oniston bo'yicha jarayonlarda muhim vositachi va asosiy diplomatik platformalardan biriga aylandi. Bunga, eng avvalo, 2013-yilda Dohada Tolibon harakatining siyosiy vakolatxonasi ochilgani asosiy qadamlardan biri bo'ldi [5]. Mazkur qadam natijasida Qatar poytaxti Afg'oniston muammosini hal etishga qaratilgan siyosiy muloqot va muzokaralar markaziga aylana boshladi.

2010-yil 28-noyabrda Myunxen shahri yaqinida Qo'shma Shtatlar va Tolibon harakati vakillari o'rtasida ilk bor to'g'ridan-to'g'ri muloqot bo'lib o'tdi. Pokistonlik jurnalist va tahlilchi Ahmad Rashidning ta'kidlashicha, Tolibon muzokaralar jarayonida neytral musulmon davlatining ishtirok etishini ma'qul ko'rgan hamda shu sababli Qatar rasmiylarini ushbu jarayonga jalb etishni so'ragan [6]. Shuningdek, 2010-yil fevral va may oylarida Qo'shma Shtatlar hamda Tolibon vakillari o'rtasida yana ikki marotaba uchrashuvlar o'tkazilgan bo'lib, ulardan biri Qatarda, ikkinchisi Germaniyada tashkil etilgan. Mazkur muloqotlar davomida tomonlar o'zaro ishonchni mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlarni muvaffaqiyatli qilganlar. Xususan, Tolibonga nisbatan joriy etilgan ayrim sanksiyalarni bekor qilish, harakat a'zolarini qamoqdan ozod etish hamda Tolibonning siyosiy vakolatxonasini ochish masalalari kun tartibiga kiritilgan.

Afg'onistonlik tadqiqotchi O. Nesserning ta'kidlashicha, Tolibon harakatining Dohada siyosiy ofis ochishi nafaqat uning xorijiy davlatlar hamda xalqaro tashkilotlar vakillari bilan aloqalarini qonuniylashtirishga xizmat qildi, balki harakatni Pokiston ta'siridan qisman uzoqlashtirish imkonini ham yaratdi [7].

2010–2020-yillar davomida ham Qatar va Tolibon harakati o'rtasidagi aloqalar uzluksiz davom etdi hamda turli darajadagi muloqot uchrashuvlari bo'lib o'tdi. Ushbu davrda tomonlar o'rtasida Afg'onistondagi vaziyatni siyosiy yo'l bilan tartibga solishga qaratilgan bir qator muzokaralar o'tkazildi. 2021-yil avgust oyida Tolibon harakati Afg'onistonda hokimiyatni qayta qo'lga kiritganidan so'ng esa Qatar va Toliblar o'rtasidagi aloqalar yangi bosqichga kirdi.

2021-yil avgust oyida Afg'onistonda hokimiyat almashganidan so'ng Qatar xorijiy fuqarolar hamda afg'onistonliklarni mamlakatdan evakuatsiya qilish jarayonida yetakchi rollardan birini bajardi. Amirlik evakuatsiya qilingan shaxslarni Afg'onistondan kelayotgan yo'lovchilar uchun asosiy tranzit markaziga aylantirilgan Al-Udeid harbiy bazasiga joylashtirdi. Qatar rasmiy ma'lumotlariga ko'ra, jarayonning dastlabki bosqichlarida mazkur bazada 75 mingdan ortiq kishi qabul qilingan bo'lsa, AQSh manbalarida bu ko'rsatkich 58 ming atrofida

deb qayd etiladi. Umuman olganda, 2021-yil avgust oyidagi evakuatsiya operatsiyalari davomida Afg'onistondan taxminan 124 ming kishi olib chiqilgan [8].

Bundan tashqari, Qatar diplomatik kanallar orqali Afg'onistonning yangi rahbariyatidan mamlakatni tark etishni istagan barcha shaxslar uchun evakuatsiya muddatini uzaytirish bo'yicha rozilik olishga erishdi. Qatarining Afg'onistondagi elchisi esa ayrim hollarda shaxsan Tolibon nazorat punktlaridan o'tayotgan fuqarolarga hamrohlik qilgani qayd etiladi.

Shuningdek, Turkiya bilan hamkorlikda Qatar Tolibon tomonidan taqdim etilgan xavfsizlik kafolatlari asosida Kobul xalqaro aeroportining nazorat va texnik xizmat ko'rsatish tizimlarini qayta tiklashda muhim rol o'ynadi. Mazkur chora-tadbirlar 2021-yil sentabr oyining boshida gumanitar hamda ichki reyslarning bosqichma-bosqich qayta yo'lga qo'yilishiga imkon yaratdi. Amerikalik tahlilchi

D. Esfandiariyning fikriga ko'ra, "Qatar ishtirokisiz hech bir davlat keng ko'lamli evakuatsiya jarayonini samarali amalga oshira olmagan". Tolibon harakati Kobul shahrini egallab olganidan so'ng AQSh, Buyuk Britaniya, Italiya, Yaponiya va boshqa bir qator G'arb davlatlarining elchixonalari faoliyati vaqtincha Qatarga ko'chirildi [9]. Natijada Doha G'arb davlatlari uchun Afg'oniston bo'yicha asosiy diplomatik markazlardan biriga aylandi hamda G'arb diplomatlari va siyosiy doiralar vakillarining tashriflari sezilarli darajada faollashdi.

Xususan, 2021-yil avgust-sentyabr oylarida Qo'shma Shtatlar, Germaniya, Buyuk Britaniya, Niderlandiya va Italiya diplomatik vakolatxonalari rahbarlari Qatarga tashrif buyurdilar. Bundan tashqari, 2021-yil noyabr oyida AQSh va Qatar o'rtasida erishilgan kelishuvga muvofiq, Qatar elchixonasi Afg'onistonda AQShning diplomatik manfaatlarini ifoda etuvchi vakolatli tomon sifatida faoliyat yuritishi belgilandi.

Shu bilan birga, Tolibon harakati Afg'onistonda hokimiyatni qayta qo'lga kiritganidan keyin ham Qatarda AQSh-Tolibon muloqotlari davom etdi. Jumladan, 2022-yil 8-oktabrda Oq uy ma'muriyatining yuqori lavozimli vakillari Dohada Tolibon vakillari bilan Al-Qoida yetakchisi Ayman az-Zavohiriyning yo'q qilinganidan keyingi ilk rasmiy uchrashuvni o'tkazdilar.

Afg'on inqirozi Qatarining xalqaro maydondagi nufuzini oshirish uchun muhim imkoniyat bo'lib xizmat qildi. Doha murosaga yo'naltirilgan tashqi siyosati orqali ishonchli vositachi sifatida tanila boshladi. Bu jarayon Qatarining nafaqat mintaqaviy, balki global diplomatik tizimdagi o'rnini mustahkamladi. Afg'oniston bo'yicha olib borilgan sa'y-harakatlar amirlikning tashqi siyosatida pragmatizm va moslashuvchanlik ustuvor ekanini ko'rsatdi. Natijada Qatar kichik davlat bo'lishiga qaramay, murakkab xalqaro masalalarda muhim ta'sir ko'rsata olishini namoyon etdi.

Xulosa. Qatarning Afg'onistonga nisbatan tashqi siyosati izchil ravishda bir necha bosqichlardan o'tdi. Amirlik vaqt o'tishi bilan ushbu yo'nalishdagi faolligini bosqichma-bosqich oshirib, mavjud diplomatik va siyosiy imkoniyatlardan oqilona foydalandi. Shu bilan birga, Qatar o'z tashqi siyosatidagi ayrim muammoli tajribalarni (jumladan, Suriya, Yaman, Sudan va qisman Falastin yo'nalishlaridagi cheklangan natijalarni) inobatga olgan holda, Afg'oniston masalasida ehtiyotkor va pragmatik yondashuvni tanladi hamda jarayonlarga keskin aralashishdan tiyildi.

Qatarning Afg'onistondagi rolini belgilab bergan muhim burilish nuqtasi 2013-yilda Dohada Tolibon harakatining siyosiy ofisi ochilishi bo'ldi. Aynan shu davrdan boshlab Doha Afg'oniston yo'nalishida yetakchi diplomatik pozitsiyalar uchun kurashga faol kirishdi. Amirlik birinchi afg'onlararo muzokaralarga mezbonlik qildi, Qo'shma Shtatlar va Tolibon o'rtasida tinchlik kelishuvining imzolanishiga ko'maklashdi, shuningdek, Tolibon, AQSh va boshqa bir qator davlatlar o'rtasidagi muloqotlar uchun qulay platforma yaratdi.

2021-yilda Afg'onistonda yuz bergan keskin siyosiy o'zgarishlar fonida Qatar xorijiy fuqarolar hamda afg'onistonliklarni evakuatsiya qilish jarayonida muhim rol o'ynadi. Mazkur jarayon G'arb davlatlariga minglab odamlarni mamlakatdan olib chiqib ketish imkonini berdi hamda ularning diplomatik nufuzini saqlab qolishga xizmat qildi. Natijada, Doha qisqa muddat ichida Afg'oniston bilan bog'liq deyarli barcha muhim masalalar bo'yicha xalqaro muhokamalar markaziga aylandi.

Ma'lum bir davr mobaynida Qatar G'arb mamlakatlari va Tolibon o'rtasidagi asosiy vositachi sifatida namoyon bo'ldi. Ashraf G'ani hukumatining ag'darilishidan so'ng ko'plab G'arb davlatlarining elchixonalari Dohaga ko'chirildi. Albatta, bunday maqom doimiy emas va Qatarning uni uzoq muddat davomida saqlab qolish uchun cheklangan resurslarga ega ekanini e'tirof etish lozim. Shunga qaramay, hududi va aholisi nisbatan kichik bo'lgan davlatning Afg'oniston kabi murakkab va ko'p qirrali mojaro doirasida bunday darajadagi diplomatik rolni qo'lga kiritgani zamonaviy xalqaro munosabatlar amaliyotida alohida e'tiborga loyiq hodisa sifatida baholanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Дербенев А.С. Катар в конце XX - начале XXI в.: динамика политических процессов // Вестник Московского университета. Востоковедение. 2019. Серия №1. 13. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/katar-v-kontse-xxnachale-xxi-v-dinamika-politicheskikhprotsessov>
2. Коргун В.Г. История Афганистана. XX век. М.: ИВ РАН: 2004. – С.45.

3. Бирден М. Афганистан – кладбище империй // Россия в глобальной политике. 2021. Т. 19. No. 5. – С. 10-22.
4. Rachid Aarab. Qatar petroleum and oil & gas sector: A history of governace and globalisation. p-17-29.
5. Afghan Taliban opens Qatar office, says seeks political solution. <https://www.reuters.com/article/world/afghan-taliban-opens-qatar-office-says-seeks-political-solution-idUSBRE95H0NU/>
6. Ahmed Rashid: Talks with Taliban must be secret to be successful. <https://www.afghanistan-analysts.org/en/recommended-reading/ahmed-rashid-talks-with-taliban-must-be-secret-to-be-successful/>
7. О.Нессар. Афганский марафон: почему на переговорах в Дохе никто не спешит // ИМЭМО РАН. 2021. №1 (60). <https://cyberleninka.ru/article/n/>
8. Qatar helped evacuate over 75,000 from Afghanistan'. <https://thepeninsulaqatar.com/article/20/08/2023/qatar-helped-evacuate-over-75000-from-afghanistan>, August 20, 2021.
9. Хайруллин Т., Коротаев А. Борьба между катарско турецким и саудовско-эмиратским блоком за влияние в Афганистане // Контуры глобальных трансформаций: политика, экономика, право. 2022. №2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/borba-mezhdu-katarsko-turetskim-i-saudovsko-emiratskim-blokom-za-vliyanie-v-afganistane>